

Toshkent davlat tibbiyot universiteti 1-son Oilaviy shifokorlik, jismoniy tarbiya, fuqarolar muhofazasi kafedrasining ZOOM orqali o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bo'yicha Ma'rifat darsi


BAYONNOMASI № 12

17.11. 25 yil

Toshkent sh.

Qatnashganlar: Kafedra ass. Shayxova M.I. va kafedrada tahsil olayotgan 2-Pediatrica fakulteti 6-kurs 616 - 617 - guruh talabalari


Ushbu mashg'ulot talabalarda **"O'zbekiston bayrog'i"** atamasining mazmun-mohiyatini atroflicha tushunish, uning davlatimiz ramzi sifatidagi ahamiyatini anglash hamda mamlakatimiz bayrog'ini ardoqlash va qadrlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.



"Bayroq" – ma'lum rangda tayyorlanib, maxsus ramziy belgilar tushirilgan mato ma'nosini anglatadi. Dunyodagi barcha davlatlarning milliy bayrog'i bor. O'zbekiston Respublikasining ham o'z bayrog'i mavjud.

U davlatimizning ramzlaridan biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabrdagi sessiyasida tasdiqlangan. Shundan boshlab bu sana yurtimizda "bayroq kuni" sifatida nishonlanadi.

Davlatimiz bayrog'i 1991-yil 18-noyabrdagi 407-XII-sonli "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi Qonuni bilan tasdiqlangan. O'shandan buyon u barchamiz uchun eng qadrlil va ardoqli davlat ramzlaridan biri bo'lib kelmoqda.



Davlat bayrog'i mamlakatimiz gerbi va madhiyasi singari davlat ramzi bo'lib, suverenitetimizning asosiy belgilaridan biridir. O'zbekiston bayrog'i xalqimiz uchun milliy davlatchiligimizning eng qadrlil va mo'tabar timsollaridan biri bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'ri to'rtburchak shakldagi matoda aks etgan bo'lib, uchta asosiy gorizontal rangdor bo'lakka (yorqin moviy, oq, yorqin yashil) bo'lingan. Bu bo'laklar orasini ikkita qizil rangdagi gorizontal chiziq ajratib turadi. Bayroqdagi moviy rang zangori osmon va musaffo suv ramzidir.

Oq rang – tinchlik va poklik timsoli. Oq rang O‘zbekiston tanlagan yo‘lning musaffo va charog‘on bo‘lishi uchun yaxshi niyat ramzidir.

Qizil yo‘llar – har bir tirik jonning qon tomirida urib turgan hayotiy kuch, hayot ramzi.

Yashil rang – tabiat timsoli. Yarim oy – Islom ramzi. Shuningdek, u yulduzlar bilan birga musaffo osmon va tinchlikni aks ettiradi.

Yulduzlar barcha uchun ruhoniyl, ilohiy timsol sanalgan. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘idagi 12 yulduz tasviri ham tarixiy an‘analarimiz, qadimgi yilnomamizga bevosita aloqador. Bizning o‘n ikki yulduzga bo‘lgan e‘tiborimiz O‘zbekiston sarhadidagi qadimgi davlatlar ilmiy tafakkurida nujum ilmi taraqqiy etganligi bilan ham izohlanadi. Ba’zi manbalarda bayroqdagi 12 yulduz tasviri O‘zbekistonning viloyatlarini ifodalaydi deb ko‘rsatilgan.

Davlat bayrog‘i va uning ramzi bugungi O‘zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo‘lgan davlatlar bilan tarixan bog‘liqligini anglatadi hamda respublikaning milliy-madaniy an‘analarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Kafedra mudiri, t.f.d., prof.



Shamansurova E.A.

Ma’naviyat va ma’rifat ishlari

bo‘yicha mas’ul, ass.:



Shayxova M.I.